

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 254-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254





TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: moxinabonushamsikulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorijiy tajribasi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda sog'liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish amaliyoti o'rganilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilib, xorij tajribasining afzalliklari hamda ularni O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimiga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobining shaffofligi, ishonchligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmatlar, buxgalteriya hisobi, sog'liqni saqlash, xorij tajribasi, moliyaviy hisobot, boshqaruv hisobi, xarajatlar hisobi, xalqaro standartlar, raqamlashtirish, IFRS.

Аннотация. В статье исследован зарубежный опыт совершенствования бухгалтерского учета медицинских услуг. Проанализированы особенности организации бухгалтерского учета, учета затрат, подготовки финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами, а также внедрения цифровых технологий в учреждениях здравоохранения США, Великобритании, Германии, Японии и Республики Корея. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода и экономического анализа, что позволило определить возможности адаптации передового зарубежного опыта к системе здравоохранения Республики Узбекистан. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на повышение прозрачности, достоверности бухгалтерского учета и эффективности управления финансовыми ресурсами медицинских организаций.

Ключевые слова: медицинские услуги, бухгалтерский учет, здравоохранение, зарубежный опыт, финансовая отчетность, управленческий учет, учет затрат, международные стандарты, цифровизация, МСФО.

Abstract. This article examines international experience in improving accounting for medical services from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes accounting practices in healthcare institutions in the United States, the United Kingdom, Germany, Japan, and South Korea, focusing on cost accounting, financial reporting in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS), and the implementation of digital technologies. Comparative analysis, systematic approach, and economic analysis methods were employed to identify best practices and evaluate their applicability to the healthcare system of Uzbekistan. The findings provide practical recommendations aimed at improving transparency, reliability, and management efficiency in accounting for medical services.

Keywords: medical services, accounting, healthcare, international experience, financial reporting, management accounting, cost accounting, International Financial Reporting Standards (IFRS), digitalization, healthcare finance.

KIRISH

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bilan bir qatorda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ularning shaffof hisobini yuritishni ham dolzarb masalaga aylantirmoqda. Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobi tibbiyot muassasalarining





moliyaviy holatini ishonchli baholash, xarajatlarni nazorat qilish, xizmatlar tannarxini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Jahon amaliyotida sog'liqni saqlash tizimida buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo'llash, faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (Activity-Based Costing), boshqaruv hisobi elementlarini joriy etish hamda raqamli axborot tizimlaridan foydalanish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligi oshirilmoqda. Ushbu tajribalar tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish hamda buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tibbiy xizmatlar xarajatlarini hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish, boshqaruv hisobini rivojlantirish va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish, ularning samarali jihatlarini aniqlash hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari so'nggi yillarda xalqaro miqyosda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash va shaffof moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatida baholanadi [1].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xarajatlarni monitoring qilish hamda raqamli axborot tizimlarini keng joriy etish tibbiy xizmatlar sifati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [2]. Xalqaro amaliyotda tibbiyot muassasalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha hisobga olish va boshqaruv hisobi elementlarini qo'llash tobora kengayib bormoqda [3].

IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari sog'liqni saqlash tashkilotlarida moliyaviy axborotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur standartlarni qo'llash investorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi [4].

OECD ekspertlari sog'liqni saqlash xarajatlarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalar, elektron buxgalteriya tizimlari va avtomatlashtirilgan moliyaviy nazorat vositalarining ahamiyati ortib borayotganini qayd etadilar [5].





Shu bilan birga, zamonaviy axborot tizimlari tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatini yaratadi [6].

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham sog'liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi ilmiy asoslangan [7]. So'nggi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar buxgalteriya hisobining zamonaviy usullarini joriy etish uchun qulay sharoit yaratmoqda [8].

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishda xalqaro standartlar, boshqaruv hisobi, xarajatlar hisobi hamda raqamli texnologiyalarni uyg'un qo'llash sog'liqni saqlash muassasalarining moliyaviy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorijiy tajribasini o'rganishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda kuzatish usullari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya sog'liqni saqlash tizimlarida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish amaliyoti tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari va samarali mexanizmlari O'zbekiston amaliyoti bilan qiyoslandi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), sog'liqni saqlash sohasiga oid xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar ilmiy manba sifatida o'rganildi.

Shuningdek, tibbiyot muassasalarida xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va boshqaruv hisobini tashkil etish bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari baholandi. Tadqiqot natijalari asosida xorijiy tajribaning milliy sog'liqni saqlash tizimiga mos keladigan jihatlari aniqlanib, tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobi moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, AQSH va Buyuk Britaniyada xarajatlar markazlari (Cost Centers) hamda faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (Activity-Based Costing) usullaridan foydalanish tibbiy xizmatlar tannarxini aniq hisoblash imkonini bermoqda. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.


Germaniya va Yaponiya tajribasi tahlili shuni ko'rsatdiki, bu mamlakatlarda buxgalteriya hisobi zamonaviy axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan bo'lib,



moliyaviy operatsiyalar real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Natijada hisobotlarning ishonchliligi oshadi, moliyaviy xatolar kamayadi va ichki nazorat tizimi samarali ishlaydi.

O'zbekiston amaliyotini xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobida ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, xarajatlarni xizmat turlari bo'yicha to'liq hisobga olish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, boshqaruv hisobining cheklanganligi hamda raqamli buxgalteriya tizimlaridan foydalanish darajasining pastligi moliyaviy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiyot muassasalarida xalqaro tajriba asosida xarajatlar hisobini takomillashtirish, IFRS talablariga mos moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va boshqaruv hisobini rivojlantirish tibbiy xizmatlar sifatini hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi

1-rasmda tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi hamda ularning O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi uchun ahamiyatli jihatlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Tahlildan ko'rinadiki,



AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda buxgalteriya hisobi zamonaviy raqamli texnologiyalar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari hamda kuchli ichki nazorat tizimlari asosida tashkil etilgan.

Rasmga muvofiq, AQSH tajribasida buxgalteriya hisobi xarajatlar markazlari (cost center) bo'yicha yuritilishi va ichki auditning rivojlanganligi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Germaniyada kasalxonalar faoliyatida HIS (Hospital Information System) va DRG (Diagnosis Related Groups) tizimlari qo'llanilishi tibbiy xizmatlarning tannarxini aniq hisoblash hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Buyuk Britaniyada esa NHS tizimi doirasida yagona moliyaviy boshqaruv siyosati va IFRS hamda IPSAS standartlariga asoslangan hisobot yuritilishi davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi.

Yaponiya tajribasi tibbiy xizmatlar tannarxini aniqlashda Activity-Based Costing (ABC) usulining keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuv xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash orqali boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi. Janubiy Koreyada esa elektron tibbiy kartalar (EMR) va buxgalteriya tizimlarining to'liq integratsiyalashuvi natijasida moliyaviy operatsiyalar avtomatlashtirilgan va hisobotlarni tayyorlash jarayoni sezilarli darajada soddalashtirilgan.

Rasmning markaziy qismida xorijiy tajribadan kelib chiqadigan ustuvor yo'nalishlar sifatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish, elektron buxgalteriya tizimlarini rivojlantirish, tibbiy axborot tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish, ichki auditni takomillashtirish hamda xarajatlarni boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish ko'rsatilgan. Ushbu yo'nalishlar sog'liqni saqlash muassasalarida moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rasmning yakuniy qismida xorijiy tajribani joriy etish natijasida erishilishi mumkin bo'lgan asosiy natijalar ifodalangan. Jumladan, moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi ortadi, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi oshadi, moliyaviy nazorat va hisobdorlik kuchayadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati yaxshilanadi hamda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish uchun zarur moliyaviy asos yaratiladi.

Umuman olganda, 1-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar tajribasida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning asosiy omillari raqamlashtirish, xalqaro standartlarga moslashish, axborot tizimlari integratsiyasi va samarali ichki nazorat hisoblanadi. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish buxgalteriya hisobining sifati, moliyaviy shaffoflik va byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobi zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida





shakllangan bo'lib, xarajatlarni samarali boshqarish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ishonchli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajriba tahlili O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tibbiyot muassasalarida xarajatlarni hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish, boshqaruv hisobini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish moliyaviy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashda xalqaro standartlardan foydalanish muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- tibbiyot muassasalarida xarajatlarni xizmat turlari, bo'linmalar va javobgarlik markazlari kesimida hisobga olish tizimini joriy etish;
- buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari asosida bosqichma-bosqich takomillashtirish;
- elektron buxgalteriya va integratsiyalashgan axborot tizimlarini keng joriy etish orqali moliyaviy ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini oshirish;
- boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan tibbiy xizmatlar tannarxini aniqlash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish;
- ichki audit va ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- tibbiyot muassasalari buxgalterlari va moliya xodimlarining malakasini xalqaro tajriba asosida muntazam oshirib borish;
- sog'liqni saqlash tizimida buxgalteriya hisobi bo'yicha yagona uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobining shaffofligi va ishonchliligini oshirish, xarajatlarni samarali boshqarish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda sog'liqni saqlash muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini yanada oshirish uchun mustahkam moliyaviy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Federation of Accountants (IFAC). Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. New York: IFAC, 2023.
2. World Health Organization. World Health Statistics 2024: Monitoring Health for the SDGs. Geneva: WHO, 2024.
3. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-Driven Activity-Based Costing: A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits. Updated edition. Harvard Business Review Press, 2022.
4. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards – Official Pronouncements. London: IFRS Foundation, 2024.





5. OECD. Health at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. World Bank. Digital Transformation of Health Systems. Washington, DC: World Bank, 2023.
7. To'xliyev I.S., Pardayev A.X. Buxgalteriya hisobi. Toshkent: "Iqtisod-Moliya". 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF–158-son Farmon. 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Sog'liqni saqlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Toshkent, 2024.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**